



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshoval Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashev Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURSLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti katta o'qituvchisi
Email: shohzoduralov25@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank xizmatlarini sug'urtalashning ilmiy-nazariy asoslari, uning iqtisodiy mohiyati va zamonaviy moliyaviy tizimdagi o'rni tahlil qilinadi. Bank va sug'urta institutlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlari, xususan, bankassurance modeli orqali moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida risk nazariyasi, institutsional yondashuv va moliyaviy vositachilik nazariyalari asosida bank xizmatlarini sug'urtalash mexanizmlari o'rganildi. Shuningdek, rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ushbu yo'nalishning amaliy ahamiyati va O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari asoslab berildi. Tadqiqot natijasida bank xizmatlarini sug'urtalash moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni diversifikatsiya qilish va mijozlar ish onchini oshirishda muhim instrument ekanligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: bankassurance, risk, sug'urta, bank xizmatlari, moliyaviy vositachilik, integratsiya, korporativ boshqaruv.

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of insuring banking services, its economic essence, and its role in the modern financial system. The integration processes between banking and insurance institutions, particularly the issues of increasing the efficiency of financial services through the bancassurance model, are highlighted. During the research, the mechanisms for insuring banking services were studied based on the theories of risk, institutional, and financial intermediation. Furthermore, based on the experience of developed countries, the practical significance of this approach and its potential for application in the context of Uzbekistan were substantiated. The study found that insuring banking services is an important instrument for ensuring financial stability, diversifying risks, and increasing customer trust.

Keywords: bancassurance, risk, insurance, banking services, financial intermediation, integration, corporate governance.

Абстрактный: В данной статье анализируются научные и теоретические основы страхования банковских услуг, их экономическая сущность и роль в современной финансовой системе. Рассмотрены процессы интеграции банковских и страховых учреждений, в частности вопросы повышения эффективности финансовых услуг посредством модели «банкострахования». В ходе исследования изучены механизмы страхования банковских услуг на основе теорий риска, институционального подхода и финансового посредничества. Кроме того, на основе опыта развитых стран обосновано практическое значение данного подхода и его потенциал для применения в условиях Узбекистана. Исследование показало, что страхование банковских услуг является важным инструментом обеспечения финансовой стабильности, диверсификации рисков и повышения доверия клиентов.

Ключевые слова: банковское страхование, риск, страхование, банковские услуги, финансовое посредничество, интеграция, корпоративное управление.

Kirish (Введение/Introduction).

Moliyaviy globallashtirish sharoitida banklar faoliyati an'anaviy kreditlash operatsiyalari bilan cheklanib qolmay, balki xizmatlar spektrini kengaytirish orqali daromad manbalarini diversifikatsiya qilishga yo'naltirilmoqda. Buning asosiy sababi – moliya bozorlarida raqobatning keskinlashuvi, foiz marjasining qisqarishi hamda mijozlar talabining murakkablashib borayotganidir. Natijada tijorat banklari o'z biznes-modellarini transformatsiya qilib, komission daromadlar ulushini oshirishga intilmoqda. Zamonaviy sharoitda banklar tomonidan ko'rsatilayotgan qo'shimcha xizmatlarga sug'urta mahsulotlarini sotish (bankassurance), investitsion xizmatlar, aktivlarni boshqarish, to'lov tizimlari, raqamli banking xizmatlari va konsalting xizmatlari kiradi. Ushbu xizmatlar nafaqat bank daromadlarini barqarorlashtiradi, balki risklarni diversifikatsiya qilish imkonini ham yaratadi. Xususan, foiz daromadlariga bog'liqlikning kamayishi banklarning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Shuningdek, bank va sug'urta sektorlarining integratsiyalashuvi mijozlarga kompleks moliyaviy xizmatlar paketini taqdim etish imkonini beradi. Bu esa mijozlar sodiqligini oshirish, xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytirish va bozor ulushini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, bank xizmatlarini sug'urtalash tizimi zamonaviy moliyaviy vositachilikning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib bormoqda.

Sug'urta sektori bilan integratsiya banklar uchun an'anaviy faoliyat doirasidan chiqib, yangi daromad manbalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy biznes model bankassurance konsepsiyasi orqali namoyon bo'lmoqda. Ushbu model bank va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi institutsional hamkorlikni anglatib, bank infratuzilmasi orqali sug'urta mahsulotlarini mijozlarga yetkazib berishni nazarda tutadi. Ilmiy nuqtai nazardan, bankassurance modeli moliyaviy vositachilik

nazariyasining evolyutsion bosqichi sifatida qaraladi. Unga ko'ra, banklar nafaqat kredit beruvchi institut, balki kompleks moliyaviy xizmatlar provayderiga aylanadi. Bu jarayonda banklar o'z mijoz bazasi, filial tarmog'i va raqamli platformalaridan foydalanib, sug'urta xizmatlarini samarali realizatsiya qiladi. Natijada operatsion xarajatlar kamayadi, xizmatlar sinergiyasi yuzaga keladi va qo'shimcha komission daromadlar shakllanadi. Mazkur integratsiyaning iqtisodiy afzalliklari bir necha yo'nalishda namoyon bo'ladi. Birinchidan, banklar uchun foizsiz daromadlar ulushi ortadi va bu ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Ikkinchidan, sug'urta kompaniyalari uchun yangi savdo kanallari ochilib, mijozlar qamrovi kengayadi. Uchinchidan, mijozlar uchun "bir darcha" tamoyili asosida kompleks moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, ushbu modelni samarali joriy etish uchun muhim shartlar mavjud: rivojlangan huquqiy baza, risklarni boshqarish tizimining takomillashganligi, xodimlarning malakasi hamda raqamli texnologiyalar integratsiyasi. Aks holda, bankassurance modeli kutilgan iqtisodiy samarani bermasligi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng rivojlangan mamlakatlarning turli xil iqtisodiy yo'llarini o'rgandik hamda ularda ma'lum bo'lgan hatolarni o'rganish hamda ulardan chetlab o'tish bo'yicha ko'pgina samarali usullarni qo'llandi hamda bundan buyog'iga ham iqtisodiyotimizni rivojlantirish uchun qollanib kelinmoqda. Shunday bir vaziyatda dunyodagi eng yirik bozorlardan biri bo'lgan sug'urta bozorini rivojlantirish uchun ham turli hil davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda hamda iqtisodiyotda tatbiq e'tilmoqda. Shunday bir soxalardan biri bo'lgan sug'urta soxasini ham rivojlantirish uchun ushbu soxada rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib bank sug'urtasini ham

rivojlantirish bugungi kundagi olimlarning asosiy g'oyalardan biri bo'lib qolmoqda. Buning uchun esa albatta chet el olimlarining ushbu soxani rivojlantirish uchun g'oyalari bilan tanishishimiz zarur. Shunday g'oyani ilgari surgan olimlar [Douglas W. Diamond](#), [Philip H. Dybvig](#) o'zlarining "Banking Theory, Deposit Insurance, and Bank Regulation" nomli maqolasida Omonatlarni sug'urtalash – bankdagi ortiqcha hujjatlarning oldini olish va shu bilan birga banklarning likvidlik yaratishini to'xtatmaslik uchun yagona ma'lum samarali choradir, shuning uchun bank siyosati masalalari omonatlarni sug'urtalash kontekstida ko'rib chiqilishi kerak. Omonatlarni sug'urtalash tizimi mavjud bo'lsa, banklar o'z pozitsiyalarining salbiy xavfini o'z zimmasiga olmaydi, chunki bu xavfni sug'urta qiluvchi o'z zimmasiga oladi. Natijada, banklarda ortiqcha xavfni o'z zimmasiga olishga tabiiy rag'batlar paydo bo'ladi va bank siyosati ushbu rag'batlarga qarshi kurashish uchun mo'ljallanishi kerak degan fikrni ilgari suradi.[1]. Ya'na bir chet el olimlaridan Olena Zharikova; Oksana Pashchenko; Kateryna Cherkesenko o'zlarining "Theoretical fundamentals of the integration process of banking institutions and insurance companies of Ukraine" nomli maqolalarida quyidagicha fikrni ilgari suradi. Bank sug'urtasining eng sodda shakllari tegishli moliyaviy mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lib, ular eng keng tarqalgan hisoblanadi. Banklar va sug'urta kompaniyalarining iqtisodiy integratsiyasiga aniq ta'rif yo'q, lekin u ushbu tushunchaga oid barcha olimlarning umumiy g'oyasiga asoslanadi, ya'ni ikki yoki undan ortiq moliyaviy institutlarni birlashtirish yoki makroiqtisodiy darajada operatsion foyda, bozor ta'siri va samaradorlikni oshirish.[2]. Maxalliy olimlardan sanalgan Alimov Jalol Quدراتovich, Mamadjanova Tuyg'unoy, Oybek Ro'ziyev o'zlarining "Banklarda kredit berish jarayonida sug'urta amaliyoti" nomli maqolasida Banklarda kredit berish jarayonida sug'urta amaliyotini takomillashtirish masalasi moliyaviy barqarorlik, xavfni boshqarish va bank tizimining funksional yetukligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi deb fikr bildiradi.[3]. Yana bir maxalliy olimlarimizdan Zokir Mamadiyarov hamda Tajimatov O'tkirjonlarning "Improving the Practice of Insurance of Credit Objects of Commercial Banks" nomli maqolasida Kredit sug'urtasi mahsulotlarini diversifikatsiya qilish. Turli xil kredit turlari uchun maxsus sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish: iste'mol, ipoteka, avtomobil va kichik biznes kreditlari uchun maxsus sug'urta dasturlarini joriy etish. Bu har bir kredit turiga oid aniq shartlarni belgilash orqali xatarlarni samaraliroq boshqarishga yordam beradi deyiladi.[4]

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda ekspert baholash, umumlashtirish, taqqoslash, mantiqiy yondashuv, tahlil, ma'lumotlarni guruhlash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalarlar (Analysis and results/Анализ и результаты).

Bank xizmatlarini sug'urtalash zamonaviy moliyaviy tizimda risklarni boshqarishning muhim vositasi sifatida shakllanib bormoqda. Xususan, banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi integratsiya jarayonlari natijasida yuzaga kelgan bancassurance modeli moliyaviy xizmatlar bozorida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu model orqali banklar o'z mijozlariga nafaqat an'anaviy bank xizmatlarini, balki sug'urta mahsulotlarini ham taklif etish imkoniyatiga ega bo'lib, bu esa mijozlarga kompleks va qulay moliyaviy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Mazkur tahlil bo'limida bancassurance modelining iqtisodiy mohiyati, uning banklar daromadligiga ta'siri, sug'urta xizmatlari bozorida ulushi hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi roli statistik ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Shuningdek, banklar orqali sug'urta mahsulotlarini realizatsiya qilish dinamikasi, ushbu jarayonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi tajribasi hamda O'zbekiston sharoitidagi amaliy holati tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida xalqaro moliyaviy institutlar, jumladan, World Bank, International Monetary Fund hamda OECD tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va milliy statistika organlari ma'lumotlaridan foydalaniladi. Bu esa olib borilayotgan tahlilning ishonchligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi.

Mazkur bo'limning asosiy maqsadi bancassurance modelining samaradorligini baholash, uning bank tizimi faoliyatiga ta'sirini aniqlash hamda O'zbekiston sharoitida ushbu modelni rivojlantirish istiqbollari ilmiy jihatdan asoslab berishdan iboratdir. Shu bilan birga, tahlil natijalari asosida bank xizmatlarini sug'urtalash mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ham ko'zda tutilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib eng avvalo Bancassurance atamasiga to'xtalsak. Bancassurance bu banklar orqali sug'urta mahsulotlarini sotish tizimi bo'lib, u bank va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi strategik hamkorlikni anglatadi. Banklarning bancassurance modelidagi roli, avvalo, ularning keng va barqaror shakllangan mijozlar bazasiga egaligi

bilan izohlanadi. Banklar yillar davomida jismoniy va yuridik shaxslar bilan bevosita moliyaviy aloqalar o'rnatib kelganligi sababli, ular katta hajmdagi ishonchli mijozlar portfeliga ega. Ushbu mijozlar bank xizmatlaridan kreditlash, depozitlar, to'lovlar, plastik kartalar va boshqa moliyaviy operatsiyalar orqali muntazam foydalanadi. Natijada, banklar o'z mijozlarining moliyaviy xulq-atvori, to'lov intizomi, daromad darajasi va ehtiyojlari haqida keng ma'lumotga ega bo'ladi. Bu esa sug'urta mahsulotlarini individual ehtiyojlarga moslashtirib taklif etish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, banklar sug'urta mahsulotlarini tarqatishda samarali distribyutor ya'ni tarqatuvchi kanal sifatida faoliyat yuritadi. An'anaviy sug'urta sotuv kanallari agentlar yoki brokerlarga nisbatan banklar ancha rivojlangan infratuzilmaga ega: keng filial tarmoqlari, raqamli bank xizmatlari mobil ilovalar, internet banking, hamda malakali xodimlar orqali xizmat ko'rsatish tizimi mavjud. Shu sababli sug'urta mahsulotlarini bank xizmatlariga integratsiya qilish orqali mijozga "bir darcha" tamoyili asosida kompleks xizmat ko'rsatish mumkin bo'ladi. Masalan, kredit ajratish jarayonida bank mijozga avtomatik ravishda kredit sug'urtasini taklif etadi. Bu jarayonda bank nafaqat kredit beruvchi, balki sug'urta mahsulotini sotuvchi vositachi sifatida ham qatnashadi. Natijada mijoz uchun vaqt va tranzaksiya xarajatlari kamayadi, bank esa qo'shimcha komissiya daromadiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, bank orqali sug'urta mahsulotlarini sotish risklarni kamaytirish nuqtai nazaridan ham muhim, chunki kredit bilan bog'liq tavakkalchiliklar sug'urta kompaniyasi zimmasiga qisman o'tkaziladi.

Shunday qilib, banklar bancassurance modelida ikki tomonlama funksiyani bajaradi: bir tomondan, ular keng mijoz bazasiga ega bo'lgan axborot va ishonch markazi sifatida xizmat qiladi, ikkinchi tomondan esa sug'urta mahsulotlarini samarali yetkazib beruvchi distribyutor sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa moliyaviy xizmatlar bozorida integratsiyalashgan va yuqori samarali xizmat ko'rsatish tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.


1-jadval

Sug'urtasi rivojlangan xorijiy mamlakatlarda sug'urta mahsulotlarini sotish kanallari ulushi (2026 yilga yaqin baholash, %).[6]

Mamlakat Hudud	Banklar (Bancassurance)	Agent/Brokerlar	Raqamli (Online/InsurTech)	Boshqa kanallar
Fransiya	60–70 %	20–25 %	5–10 %	5 %
Italiya	55–65 %	25–30 %	5–10 %	5 %
Ispaniya	50–60 %	25–30 %	10 %	5 %
Germaniya	20–30 %	50–60 %	10–15 %	5 %
Buyuk Britaniya	4–10 %	60–70 %	15–25 %	5 %
AQSh	<10 %	60–65 %	20–30 %	5 %
Hindiston	15–55 % (life segmentda yuqori)	30–40 %	10–15 %	5 %
Global o'rtacha	~40 %	~40 %	~15 %	~5 %

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, sug'urta bozori rivojlangan mamlakatlarda bancassurance modeli sezilarli darajada farqlanadi. Xususan, Fransiya va Italiya kabi Yevropa davlatlarida banklar sug'urta mahsulotlarini sotishda asosiy kanal hisoblanib, ularning ulushi 60 foizdan yuqori. Aksincha, AQSh va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda sug'urta bozori asosan broker va agentlik tizimi orqali faoliyat yuritadi, banklar ulushi esa nisbatan past darajada qolmoqda.

Global miqyosda esa sug'urta mahsulotlarining qariyb 40 foizi banklar orqali realizatsiya qilinishi bancassurance modelining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Ushbu holat banklarning keng mijoz bazasi va rivojlangan distribyutorlik infratuzilmasi bilan izohlanadi.



1-diagramma: Dunyo sug'urta bozorida bancassurance sug'urtaning o'sishi (2020-2025 yillar).[7]

2020–2025 yillar oralig'ida bancassurance modeli global sug'urta bozorida izchil va barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Ushbu davrda banklar orqali sug'urta mahsulotlarini realizatsiya qilish ulushi taxminan 37 foizdan 42 foizgacha oshgan bo'lib, bu moliyaviy xizmatlar integratsiyasining chuqurlashib borayotganini ko'rsatadi. 2020 yil pandemiya sharoitida moliyaviy tizimlar uchun sinov davri bo'ldi. An'anaviy sug'urta sotuv kanallari, xususan, agentlik tarmoqlari faoliyati cheklangan bir paytda, banklar o'zining raqamli infratuzilmasi va mavjud mijoz bazasi orqali sug'urta mahsulotlarini sotishda muhim ustunlikka ega bo'ldi. Natijada bancassurance modeli nafaqat saqlanib qoldi, balki bozordagi ulushini oshirishga muvaffaq bo'ldi. 2021–2022 yillarda iqtisodiy tiklanish jarayonlari bilan birga bank xizmatlari va sug'urta mahsulotlari o'rtasidagi integratsiya yanada kuchaydi. Banklar kreditlash jarayonida sug'urta mahsulotlarini faol taklif eta boshladi, bu esa sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabni oshirdi. Ayniqsa, hayot sug'urtasi va kredit sug'urtasi segmentlarida bancassurance asosiy distribyutor kanalga aylandi. Shu davrda raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi ham sug'urta mahsulotlarini onlayn shaklda bank platformalari orqali sotishni kengaytirdi. 2023–2025 yillarga kelib esa bancassurance modeli yanada institutsional tus oldi. Ko'plab mamlakatlarda bank va sug'urta kompaniyalari o'rtasida strategik hamkorlik mustahkamlandi, ayrim hollarda esa moliyaviy konglomeratlar shakllandi. Ushbu davrda bancassurance ulushining 40 foizdan oshishi banklarning sug'urta bozori uchun asosiy distribyutor kanallardan biriga aylanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar mobil banking, sun'iy intellekt va big data asosida mijozlarga individual sug'urta mahsulotlarini taklif qilish imkoniyati kengaydi.

Umuman olganda, 2020–2025 yillar tahlili shuni ko'rsatadiki, bancassurance modeli tashqi iqtisodiy shoklarga nisbatan barqaror bo'lib, hatto inqiroz sharoitida ham o'sishni davom ettirgan. Bu esa banklarning keng mijoz bazasi, rivojlangan infratuzilmasi va sug'urta kompaniyalari bilan samarali integratsiyasi orqali izohlanadi. Kelgusida ushbu modelning rivojlanishi asosan raqamli transformatsiya darajasi va moliyaviy xizmatlar bozoridaq innovatsion yechimlarga bog'liq bo'lib qoladi.

2-jadval.

O'zbekiston uchun Bancassurance prognoz jadvali (2025–2030)[8].

Yil	Bancassurance ulushi (%)	Izoh (rivojlanish bosqichi)
2025	18	Boshlang'ich kengayish bosqichi
2026	20	Bank-sug'urta integratsiyasi kuchayishi
2027	23	Raqamli bancassurance rivojlanishi
2028	26	Bank mahsulotlariga sug'urta integratsiyasi kengayishi
2029	29	Bozor konsolidatsiyasi
2030	32	Barqaror rivojlangan bosqich

Ushbu ma'lumotlar asosida bancassurance ulushining vaqtga bog'liq o'zgarishini aniqlash maqsadida chiziqli regressiya modeli qo'llanildi. Model quyidagi ko'rinishga ega:

$$y_t = a + bt$$

bu yerda:

y_t - bancassurance ulushi (%)

t - vaqt indeksi (yillar)

a - boshlang'ich daraja (intersept),

b - o'sish sur'ati (trend koeffitsienti).

Ekonometrik hisob-kitoblarning natijasiga ko'ra quyidagi regressiya tenglamasi hosil qilindi:

$$y = 16 + 3t$$

Olingan natijalarga ko'ra, trend koeffitsienti $b = 3$ ga teng bo'lib, bu O'zbekistonda bancassurance ulushi har yili o'rtacha 3 foiz punktga oshib borishini anglatadi. Intersept qiymati $a = 16$ esa modelning boshlang'ich shartli darajasini ifodalaydi. Modelning ishonchligini baholash maqsadida trendning barqarorligi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ma'lumotlar deyarli chiziqli o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, determinatsiya darajasi yuqori ($R^2 \approx 0.95 - 0.98$ oralig'ida) hisoblanadi. Bu esa tanlangan modelning prognozlash uchun yetarlicha ishonchli ekanligini ko'rsatadi. Umumiy tahlil natijalariga ko'ra, 2025–2030 yillar oralig'ida O'zbekistonda bancassurance ulushi 18 foizdan 32 foizgacha oshishi prognoz qilinmoqda. Bu davrda umumiy o'sish tendensiyasi taxminan 77 foizni tashkil etadi. O'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,5–3 foiz band atrofida bo'lib, bu bank va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarining bosqichma-bosqich chuqurlashib borayotganini bildiradi. Ushbu holat banklarning keng mijoz bazasi, raqamli banking tizimlarining rivojlanishi hamda sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talab ortishi bilan izohlanadi.

Xulosa (Conclusion/Выводы).

Xulosa qilib aytganda, ekonometrik tahlil natijalari O'zbekistonda bancassurance modelining kelgusi yillarda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lishini tasdiqlaydi va uning moliyaviy xizmatlar bozorida muhim segmentga aylanish ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotda bank xizmatlarini sug'urtalashning ilmiy-nazariy asoslari, uning iqtisodiy mohiyati, funksional xususiyatlari hamda zamonaviy moliyaviy tizimdagi o'rni kompleks tarzda o'rganildi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, bank xizmatlarini sug'urtalash bank va sug'urta sektorlarining o'zaro integratsiyasi natijasida shakllangan muhim moliyaviy mexanizm bo'lib, u risklarni boshqarish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va xizmatlar diversifikatsiyasini kengaytirishga xizmat qiladi. Ilmiy-nazariy yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bank xizmatlarini sug'urtalash (bancassurance) konsepsiyasi moliyaviy konglomeratsiya nazariyasi, risk-menejment yondashuvi hamda moliyaviy vositachilik nazariyalarga asoslanadi. Xususan, banklar va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi integratsiya jarayonlari natijasida yagona moliyaviy xizmatlar tizimi shakllanib, mijozlarga kompleks va qulay xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, bank xizmatlarini sug'urtalashning asosiy iqtisodiy funksiyalari quyidagilardan iborat: kredit risklarini kamaytirish, bank aktivlarini himoyalash, moliyaviy yo'qotishlarni kompensatsiya qilish hamda bank daromadlarini diversifikatsiya qilish. Shu bilan birga, ushbu tizim banklar uchun qo'shimcha komission daromad manbai bo'lib xizmat qiladi, sug'urta kompaniyalari uchun esa keng mijozlar bazasiga chiqish imkonini yaratadi. Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda bank xizmatlarini sug'urtalash moliyaviy sektorning muhim segmentiga aylangan bo'lib, ayrim Yevropa davlatlarida sug'urta mahsulotlarining 50–70 foizi aynan banklar orqali sotiladi. Bu holat banklarning kuchli distribyutorlik tarmog'i va mijozlar bilan yuqori darajadagi ishonchli aloqalari bilan izohlanadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari ushbu modelning yanada rivojlanishiga turki bermoqda. O'zbekiston sharoitida esa bank xizmatlarini sug'urtalash hali rivojlanish bosqichida bo'lib, uning salohiyati to'liq ishga solinmagan. Bank va sug'urta kompaniyalari o'rtasidagi integratsiya jarayonlari endigina shakllanib bormoqda. Biroq so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan raqamli iqtisodiyot islohotlari, bank tizimidagi modernizatsiya jarayonlari hamda sug'urta bozorini liberallashtirish ushbu yo'nalishning istiqbolli ekanligini ko'rsatmoqda.

Ekonometrik va tahliliy yondashuvlar natijasi shuni tasdiqlaydiki, bank xizmatlarini sug'urtalash modeli barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, kelgusida uning moliyaviy tizimdagi ulushi yanada ortishi kutilmoqda. Bu jarayon, bir tomondan, moliyaviy xizmatlar integratsiyasining chuqurlashuvi bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, mijozlar ehtiyojlarining kompleks moliyaviy yechimlarga bo'lgan talabining ortishi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, bank xizmatlarini sug'urtalash zamonaviy moliyaviy tizimning ajralmas qismi bo'lib, u iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, risklarni samarali boshqarish hamda moliyaviy xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishning rivojlanishi raqamli texnologiyalar, FinTech yechimlar hamda institutsional islohotlar bilan bevosita bog'liq bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. The Journal of Business, Vol. 59, No. 1 (Jan., 1986), pp. 55-68 (14 pages)
<https://www.jstor.org/stable/2352687>
2. Zharikova, Olena, Oksana Pashchenko, and Kateryna Cherkesenko. "Theoretical fundamentals of the integration process of banking institutions and insurance companies of Ukraine." Political Science and Security Studies Journal 2.3 (2021): 39-46.
3. <https://inlibrary.uz/index.php/tsru/article/view/128223?>
4. Umarova, Lola. "Tijorat banklarida jismoniy shaxslarga valyuta operatsiyalarini ko'rsatishni takomillashtirish." muhandislik va iqtisodiyot 3.10 (2025).
5. European Journal of Business. Startups and Open Society <https://inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/4400/4303>
6. <https://www.econmarketresearch.com/industry-report/bancassurance-market>, <https://www.imarcgroup.com/europe-bancassurance-market> va <https://www.globaldata.com/media/insurance/uk-general-insurance-bancassurance-market-reach-6-9-billion-2029-says-globaldata/> ma'lumotlaridan foydalangan holda muallif tomonidan tayyorlandi.
7. OECD sug'urta statistikasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.
<https://www.oecd.org/finance/insurance/insurance-statistics.htm>
8. Swiss Re Institute va OECD hisobotlarida keltirilgan umumiy trendlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan ekonometrik prognoz hisoblanadi.
9. Baratova Dinora Alisherovna. (2025). O'zbekistonda sug'urta faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Insurance market of Uzbekistan, 2(6), 23-24.
https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss6/341